

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14556511>

MUHANDISLARNING KREATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

M.N.Samatova

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyala universiteti assistenti

Z.Jo‘rayeva

Termiz davlat muxandislik va agrotexnologiyala universiteti assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarning innovatsion, ijodiy yondashuvlar va zamonaviy didaktik vositalar asosida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativlik mezonlari, kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan mezonlar va ta’lim jarayoinida muhandislarning kreativligini rivojlantirib borish sifatleri bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy-ijodiy faoliyat, mutaxassis, interfaol metod, talabalar, kreativlik, qobiliyat, innovatsiya, ta’lim.

ANNOTATION

This article describes the development of creative abilities of future engineers on the basis of innovative, creative approaches and modern didactic tools, the criteria of creativity, the criteria that hinder the development of creativity, and the qualities of developing the creativity of engineers in the educational process.

Keywords: professional and creative activity, specialist, interactive method, students, creativity, ability, innovation, education.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, hayot va faoliyatning barcha jabhalarida ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida sifat jihatidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy dunyoda insonning eng ko'p talab qilinadigan qobiliyatlari ijodiy rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish, ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Shuning uchun talabalarning nafaqat intellektual, balki ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ananaviy ta'lim modeli doirasida jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi. Bu bosqichda ilgari surilgan ta'lim maqsadlariga erishish uchun ta'limning fundamental asoslarini o'zgartirish, samarali o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

Axborotlashgan texnologiyaga asoslangan jamiyatimizni muhandissiz tasavvur qilib bolmaydi. Muhandislar biz har kuni foydalanadigan murakkab ob'ektlar va tizimlarni yaratadilar. Muhandislar narsalarni yangi va hayoliy yo'llar bilan ko'rish, yangi g'oyalarni yaratish yoki tan olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Buning uchun muhandislarning o'rnatilgan fan va usullardan, shuningdek innovatsion, ijodiy yondashuvlar va zamonaviy didaktik vositalar asosida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

Zamonaviy sharoitda muhandislarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etiladi. Muhandislarning kreativlik sifatlariga ega bo'lish uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida o'qish faoliyatida bo'lgan talabalar kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun ularda o'quv va tarbiya jarayonlarida an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi.

Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarga o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lim muhitini tashkil etish

A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev,

Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi: - fikrining ravonligi; - fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; - o'ziga xoslik (originallik); - qiziquvchanlik; - farazlar yaratish qobiliyati; - xayol qila olish, fantastlikю

A.X.Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z - o'zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z - o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X.Maslou kreativlikda o'z - o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi - « ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi», «ikkinchisi - ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik» .

Kriativlik mezonlari:

- Ravonlik;
- Sezuvchanlik;
- mo''tadillik;
- rivojlanish;
- to'xtashga qarshilik;
- noaniqlik;
- ko'p vazifalilik;
- samaradorligi;
- mamnuniyat;

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash;

Ta'lim jarayoyinida qatnashuvchilarda kreativlikni rivojlantirib borish quyidagi sifatlar bilan amalga oshiriladi:

- ijodiy yo'nalganlik
- mantiqiy fikrlash;
- erudisiya(bilag'onlik)
- boy tasavvur;
- Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik
- o'z ijodkorligini to'la to'kis namoyon qilish;
- refleksiya qobiliyati
- hissiyotga boylik va natijada mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi

qarorlarni qabul qilish malakasi hosil bo'ladi.

Xulosa. Ta'lim tizimida muhandis talabalarga sifatli, muhim, zarur va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib berish orqali - kreativ, ya'ni axborotlarni tezkor qabul qila oladigan, qayta ishlab, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashga erishish mumkin. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. N.Muslimov, M. Usmonboeva, D. Sayfurov, A. To'raev. Pedagogik ompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma A-1-141. Toshkent – 2015 yil
2. N. M. Zakirova. O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari. Academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 ISSN: 2181-1385